

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

# milliy tiklanish



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasining ijtimoiy siyosiy gazetasi  
1999-yil tashkil etilgan  
Ularga omad tilaymiz!  
milliytiklanish2023@gmail.com  
№ 24  
(12) 2023-yil  
2-avgust, chorshanba  
Adasi —  
7 193



Avlodlarimiz rizqiga xiyonat qilyapmiz

3

7125

ta xonadonga tashrif buyurilib, 3490 ta muammoli masala qayd etildi.



5

## Parlament partiya dasturidagi eng muhim qonunni qabul qildi

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi yetakchisi Alisher Qodirovning fikricha, partiya nihoyat o'z niyatiga erishdi...

Ma'lumki, uzoq vaqt pedagoglar muammosi jamiyatning og'riqli muammolaridan biri sifatida qayta-qayta tilga olinib, huquqiy asos bo'lmagani sabab pedagog maqomi faqat qog'ozlarda mustahkamlandi, ayrim siyosiy partiyalar uchun esa bu masala hatto siyosiy chayqovchilik quroliga ham aylandi.



Kecha parlament quyi palatasi «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi dasturida bosh vazifalardan biri sifatida belgilab olingan masala – «Pedagog maqomi to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Tan olish kerak, ushbu qonunning qabul qilinishi milliy ta'lim va tarbiya tizimiga bo'lgan munosabatning keskin o'zgarayotganini, nihoyat pedagog kasbi amalda qadrlana boshlaganini anglatadi. Bu Alisher Qodirov aytganidek, juda katta yutuq. Faqat partiyaning emas, butun jamiyatning yutug'idir. Bir eslaylik, saylovlar arafasidagi debatlar, o'zaro muloqot va hazrati saylovchi bilan uchrashuvlarda ayni masala ko'tarilgudek bo'lsa, voizlar so'zlarini yo'qotib qo'yadigan darajaga borishardi. Shuning uchun ham ko'pchilik, hatto tizim mutasaddilari ham bu masalani chetlab o'tardilar...

2s

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

E'TIBORSIZ QOLAYOTGAN

### SHAMSHIR

Aslida ma'rifat, ziyo bo'lmagani uchun ham jinoyatlar sodir bo'ladi.

Oq qorani tanigan, halol va haromni farqiga boradigan odam bunday qabihliklarga qo'l urmaydi. Qo'l urish u yoqda tursin, bu haqda o'ylashdan ham hayo qiladi. Kitob o'qishga qaratilayotgan bugungi e'tibor gazeta va jurnallar targ'ibotiga ham qaratilganda edi, sizni biz ijtimoiy tarmoqlarda ko'rib, kuzatib borayotgan vahshiyliklar, zo'ravonligi axloqsizliklar, bachkanaligi savodsizlik ellik foizga bo'lsa ham kamaygan bo'lardi.

(Davomi 6-betda)

XALQARO FAN OLIMPIADALARIDA

63 TA MEDAL QO'LG'A KIRITILDI

Xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilar 8 ta oltin, 24 ta kumush, 31 ta bronza jami 63 ta medalni qo'lga kiritdi. Mintaqaviy xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilar 6 ta oltin, 23 ta kumush, 23 ta bronza, jami 52 ta medalni qo'lga kiritdi.



4s



QORA MUSHUK PANJASI... 7

» HAMID OLIMJON, ZULFIYA VA SHAROF RASHIDOVGA E'TIBOR SHUMI? 3

» «TURKIY ADABIYOT DURDONALARI» 5

» BO'LAR MILLAT BOLASINI BOTIRIM DER 6

BIZ - SIYOSATDANIMIZ

«Ayollar qanoti» tashabbusi bilan «Siyosatga marhamat» loyihasining navbatdagi mavsumiga start berildi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni siyosiy jarayonlarga tayyorlash, deputat ayollarning siyosiy sohadagi ijobiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida tashkil etilgan loyihaning navbatdagi muloqotida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Zumrad Bekatova qatnashib, dolzarb savollarga javob berdi. Umid qilamizki, deputatimiz fikrlari ayollar mahoratini oshirish va siyosatga qiziquvchi opa-singillarimiz ishtiyogini kuchaytirishga xizmat qiladi.

3s



### ISHONCH RUHI

Yangi O'zbekiston islohotlari nafaqat xalqimiz hayotini yaxshilashga, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar, ilm-fan sohalarda tub burilishlar, ulkan o'zgarishlarga asos bo'ldi, balki. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, «Biz dadil oldinga intilib, qo'rquv va hadikdan xalos bo'ldik. Dunyo bizga ochildi va biz dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do'st va hamkorlar orttirdik. Yuksak irodamiz, qat'iy sa'y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor millat bo'lib maydonga chiqdik».

4s





Yig'ilishda qonun loyihasi «Milliy tiklanish» uchun juda muhim ekani, partiya parlament saylovida ham, Prezidentlik saylovida ham pedagoglar maqomini oshirish bo'yicha ko'plab takliflarni ilgari surgani qayd etildi.

# FRAKSIYADA

(Boshlanishi 1-betda)

# PARLAMENT PARTIYA DASTURIDAGI ENG MUHIM QONUNNI QABUL QILDI

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi yetakchisi Alisher Qodirovning fikricha, partiya nihoyat o'z niyatiga erishdi...



**Q**onun loyihasi parlamentga kiritilgunga qadar, ya'ni fraksiyalardagi muhokamasi davrida ham qonunning qabul qilinishiga shubha qilganlar bo'lgandi. Masalan, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ta'kidlanganidek, pedagoglar maqomini oshirish bo'yicha shu kunga qadar amalga oshirilgan chora-tadbirlar, qabul qilingan hujjatlar ular faoliyatini to'laqonli bajarishga, yetarli darajada moddiy, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishiga, kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuvlardan himoya qilishga, vazifalariga taalluqli bo'lmagan ishlar jalb qilinmasligini ta'minlay olmayotgandi. Bundan tashqari, ayrim davlat tashkilotlari rahbarlari hamda ota-onalarning pedagoglar faoliyatiga asossiz aralashuvlari barham topmagani esa bu tabiiy ravishda ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatayotgan edi.

Shuning uchun ham iqtidorli yosh avlod va yuqori malakali kadrlarning pedagogika faoliyatiga keng jalb etilishini ta'minlash uchun ularga qo'shimcha huquq va imtiyozlar berish, pedagogning jamiyatdagi mavqeyini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, ularning maqomini alohida qonun bilan belgilash talab etilayotgandi. Shundan kelib chiqib, ushbu qonun kunga qadar amalga oshirilgan chora-tadbirlar, qabul qilingan hujjatlar ular faoliyatini to'laqonli bajarishga, yetarli darajada moddiy, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishiga, kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuvlardan himoya qilishga, vazifalariga taalluqli bo'lmagan ishlar jalb qilinmasligini ta'minlay olmayotgandi. Bundan tashqari, ayrim davlat tashkilotlari rahbarlari hamda ota-onalarning pedagoglar faoliyatiga asossiz aralashuvlari barham topmagani esa bu tabiiy ravishda ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatayotgan edi.

va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan, lavozim maoshidan uning rozilgisiz tovarlar va xizmatlar uchun mablag' ushlab qolish ham taqiqlanayotir. Endi aksincha, ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga o'qituvchi-murabbiylikni amalga oshiruvchi pedagog xodimini birlashtirish, pedagoglarning davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tishi, yuqumli kasalliklarga qarshi bepul emlanishi davlat tomonidan kafolatlanmoqda. Shuningdek, pedagoglar birlamchi o'quv-metodik materiallar va o'quv qurollari bilan bepul ta'minlanadigan bo'lyapti. O'quv reja va dastur o'zgariganda davlat ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini yangi turdosh fan bo'yicha qayta tayyorlash davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. 56 ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan ta'til berish ham ko'zda tutilgan. Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Erkin Zohidov «pedagog» deganda kimlar nazarda tutilishi haqidagi savolga javob berar ekan, ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyat olib boruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagog hisoblanishini aytdi.

Shuningdek, fraksiya yig'ilishida qonun tashabbuskorlari ikkinchi o'qishda kiritilgan o'zgarishlarga to'xtalar ekan, «Pedagog xodimining maqomi to'g'risida»gi so'zi «Pedagog

Prezidentlik saylovida ham pedagoglar maqomini oshirish bo'yicha ko'plab takliflarni ilgari surgani qayd etildi. – Pedagoglarning, tarbiyachi va o'qituvchilarning maqomi alohida qonun bilan

hukumat tomonidan quyidagi imtiyozlar belgilangan: oshirilgan koeffitsiyentda ish haqi to'lash, kommunal xizmatlar va yashash xarajatlari mahalliy byudjet hisobidan qoplash, yakka tartibda uy-joy qurish uchun foizsiz kreditlar berish. Xitoyning «O'qituvchilar to'g'risida»gi qonunida esa o'qituvchining o'rtacha maoshi davlat xizmatchilarining o'rtacha maoshidan kam yoki ko'p bo'lmisligi belgilangan. O'qituvchiga pedagogik ish stajiga qarab ustama va qo'shimcha haq to'lanishi ham ko'zda tutilgan. Qozog'istonda «Pedagog maqomi to'g'risida»gi qonun qabul qilingan bo'lib, pedagoglarga quyidagilar kafolatlangan: 56 kalendar kunidan iborat yillik haq to'lanadigan ta'til berish, ta'til davrida sog'ligini tiklash uchun moddiy yordam ajratish, byudjet hisobidan belgilangan tartib va miqdorda kommunal to'lovlarni to'lash hamda yoqilg'i sotib olish uchun kompensatsiya to'lab berish, shuningdek, turar joy, yakka tartibda uy-joy qurishi uchun yer maydonlari ajratish.

Qozog'istonda «Pedagog maqomi to'g'risida»gi qonun qabul qilingan bo'lib, pedagoglarga quyidagilar kafolatlangan:

## 56 KALENDAR KUNIDAN IBORAT YILLIK HAQ TO'LANADIGAN TA'TIL BERISH,

ta'til davrida sog'ligini tiklash uchun moddiy yordam ajratish, byudjet hisobidan belgilangan tartib va miqdorda kommunal to'lovlarni to'lash hamda yoqilg'i sotib olish uchun kompensatsiya to'lab berish, shuningdek, turar joy, yakka tartibda uy-joy qurishi uchun yer maydonlari ajratish.

maqomi to'g'risida»gi nom bilan almashtirilganini ma'lum qildi va bu o'zgarishni izohlab, pedagog – o'zi alohida kasb egasi hisoblanishini, agarda «xodim» so'zi qo'shilsa ushbu tushunchaning ma'nosi torayishi mumkinligini ta'kidladi. Fraksiya a'zosi Abdumalik Akramov ushbu qonun loyihasiga munosabat bildirar ekan, bugun pedagoglar maqomini tartibga soluvchi 30 dan ortiq hujjatlar borligini va ushbu qonun loyihasi sohadagi mavjud hujjatlarni yaxlit bir qonunda birlashtirayotganini ta'kidladi. Yig'ilishda qonun loyihasi «Milliy tiklanish» uchun juda muhim ekani, partiya parlament saylovida ham,

belgilanishi partiyamiz uchun katta yutuq va bu o'zgarishlarni barchamiz bir ovozdan qo'llab-quvvatlaymiz, – dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov. Shundan kelib chiqib, fraksiya yig'ilishida deputatlar qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ma'qulladilar. Qonun tashabbuskorlarining ma'lum qilishicha, loyihani ishlab chiqishda YUNESKOning maxsus nizomi, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Ozarbayjon va Yaponiya kabi davlatlarning bu boradagi tajribalari o'rganilgan. Xususan, Qirg'izistonning «O'qituvchining maqomi to'g'risida»gi qonunida tog'li va chekka qishloqlarida ishlaydigan pedagoglarga

Ravshan MAHMUDOV,  
«Milliy tiklanish» muxbiri

## O'z o'rnimizga loyiqmizmi?

**T**an olaylik, bugun ommaviy axborot vositalariga haqiqiy ma'noda erkinlik berildi. Har bir voqea-hodisalar va o'zgarishlarga, odamlarni o'ylantirayotgan muammolar va ularni keltirib chiqarayotgan holatlarga tezkor munosabat bildirish, turli mavzular bo'yicha ochiq, xolis va tanqidiy fikrlarni e'lon qilish uchun erkinlik yaratildi. Bu borada istagancha OAV xizmatidan foydalaning. Ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlari haqida-ku gapirmasa ham bo'ladi...

Shu ma'noda, partiyaviy faoliyatimiz, dasturiy maqsad va vazifalarimiz ijrosi, barcha darajadagi deputatlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yurtdoshlarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan harakatlar, tashabbuslarni keng yoritishda hududlardagi axborot xizmati vakillari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilmoqda. Biroq... Shunday bir sharoitda ayrim hamkasblarimizning boqi-beg'amlikka yo'l qo'yayotgani, yon-atrofidagi o'zgarishlarga ko'z yumib, ijobiy yoxud salbiy holatlarga hech bo'lmasa munosabat bildirishga jazm qilmayotganini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Joriy yilning yetti oylik yakuniga ko'ra, bir qator hududlarimizda «bersang yeyman, bermasang o'laman» qabilida ish tutilgan. Buni o'tgan davrda Samarqand viloyatida 422 marotaba, Toshkent viloyati 598 marotaba, Qoraqalpog'iston Respublikasi 782 marotaba hamda Farg'ona viloyatida 981 marotaba turli chiqishlar qilingani, ularning aksariyati ham nomigagina uyushtirilganida ko'rish mumkin. Bu ushbu hududlardagi Kengashlar, mahalliy deputatlarining talab darajasida faoliyat ko'rsatmayotgani yoki faoliyat ko'rsatsa-da, uni OAVda keng yoritish bo'yicha mas'ullarning o'z vazifasiga sovuq munosabatda bo'layotganidan dalolatdir.



## Befarq bo'lmaylik!



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi va uni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori loyihalari keng jamoatchilik muhokamasi uchun regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portallariga joylashtirildi.

Qayd etish joizki, «O'zbekiston – 2030» strategiyasining maqsad va samaradorlik ko'rsatkichlari fuqarolar tomonidan oson tushunish uchun qulay shaklda ifodalangan bo'lib, unda 5 ta yo'nalish bo'yicha 100 ta maqsad nazarda tutilgan. «O'zbekiston – 2030» strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishlar doirasida amalga oshirilishi belgilangan: – har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish; – barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash; – suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish; – qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish; – mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish. Fuqarolar loyihalari muhokamasida faol ishtirok etib, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan takliflarni regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portallariga yuborishlari mumkin. **Aziz yurtdoshlar! Ertangi kunimiz, farovonlik va taraqqiyotimizga xizmat qiladigan tarixiy hujjatga befarq bo'lmaylik!**



(Boshlanishi 1-betda)



2021-yilgi «Siyosatdagi ayollar» xalqaro reytingida O'zbekiston xorijiy mamlakatlar orasida 45-o'rinni egallab, top-50 talikdan joy oldi.

# Biz – siyosatdanmiz



Parlament saylovlari yakunlari bo'yicha ham parlamentning quyi palatasiga 48 nafar ayol deputat etib saylandi. Bu jami deputatlarining 32 foizini, Senatda esa 25 foizni tashkil etdi.



## Zumrad Bekatova, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, partiya fraksiyasi a'zosi:

### – Siyosatga qachon kirib kelgansiz?

– Aniq bir sanani aytishim qiyin. Ammo esimni tanibmanki, siyosat, siyosatchilar, ayniqsa, ayol siyosatchilarga havas qilganman. Sababi, dastlab, 2014-yildagi saylovda deputat bo'lib saylanganman. 2019-yilda ikkinchi marta saylandim. Otam ham tuman deputati, onam esa partiyaning faol a'zosi bo'lgan. Oiladagi muhit ta'siridami, o'quvchilik davrimdayoq maktab radiouzeli orqali maktabdoshlarimni ta'lim maskanimiz hayotiga oid xabarlar, shuningdek, bolalar va o'smirlarga oid yangiliklar bilan tanishtirib borardim. Bunday ma'lumotlarni topish uchun esa asosan davriy nashrlarni o'qishimga to'g'ri kelardi.

Keyinchalik, oliy ta'limda asosiy fanlar bilan bir qatorda falsafa, huquq, siyosatga oid fanlardan ham saboq oldim. Faoliyatim davomida esa sohaga oid huquqiy hujjatlarini muntazam o'rganib boraman. Ma'lumki, davlat siyosatining barcha yo'nalishlarini huquqiy siyosat o'z ichiga oladi. Chunki har qanday siyosiy islohotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar va Prezident tomonidan imzolangan hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Faoliyatimga oid shunday hujjatlarini o'rganish va uni ish jarayonida qo'llashga alohida e'tibor qaratardim. Bundan tashqari, deputatlik faoliyatim xalqqa yaqin bo'lishni taqozo etgani bois fuqarolarning muammolarini ko'p eshitib, ularga yordamim tegishidan xursand bo'lardim. Ishonmasligingiz mumkin. Ammo oilaviy suhbatlarimizning asosiy qismi ham siyosatga taalluqli bo'ladi.

### – Siyosatda ayollarning o'rnini qanday baholaysiz?

– Mamlakatimizda xotin-qizlarning siyosiy faoliyatiga kirishishlari uchun mustahkam huquqiy zamin yaratilgan. Shu kungacha qadar respublikamizda bu sohada xalqaro huquq normalari va standartlariga muvofiq 2 ta qonun (milliy qonunchiligimizda ayollar va erkaklar teng huquqli ekanligi hamda ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan maxsus qonunlar), 40 ga yaqin qonunosti hujjatlarini qabul qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Parlament saylovlari yakunlari bo'yicha ham parlamentning quyi palatasiga 48 nafar ayol deputat etib saylandi. Bu jami deputatlarining 32 foizini, Senatda esa 25 foizni tashkil etdi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba milliy parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Bundan tashqari, xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 foiz, siyosiy partiyalarda esa 44 foiz qayd etilgan. Mamlakatimiz tarixida ilk bor ayol kishi elchi qilib saylandi. Parlamentlararo ittifoqning 2021-yilgi «Siyosatdagi ayollar» xalqaro reytingida O'zbekiston xorijiy mamlakatlar orasida 45-o'rinni egallab, top-50 talikdan joy oldi. Yuqoridagi raqamlarning o'ziyoq, bugungi kunda siyosatda ayollarning o'rnini oshib borayotganini ko'rsatayapti.

### – Saylovlarda g'alaba qozonish uchun siyosatchi ayollarga qanday tavsiyalar bergan bo'ldingiz?

– Saylovlarda g'alaba qozonishga oid tavsiyalar emas, balki bunga ta'sir qiluvchi bir nechta omillarni sanab o'tsam, to'g'riroq bo'ladi, nazaringizda. Saylovda g'alaba qozonish yoki mag'lub bo'lish saylovda ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarimizning siyosiy irodasiga bog'liq. Bu jarayonda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin:

– nomzodning saylovga qadar faoliyat yuritgan sohasi, faoliyati davomida

keytering usulida tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni takomillashtirishda foydalanilmoqda.

### – Sizningcha, ayollarning siyosiy faolligini oshirish uchun yana nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim?

– Birinchidan, tushuntirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini faqat xotin-qizlar orasidagina emas, balki butun aholi orasida olib borish lozim. Agar otalar, turmush o'rtoq, aka-ukalarning ham



## Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 TA PARLAMENT ORASIDA 37-O'RINGA KO'TARILDI.

Bundan tashqari, xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 foiz, siyosiy partiyalarda esa 44 foiz qayd etilgan. Mamlakatimiz tarixida ilk bor ayol kishi elchi qilib saylandi.

odamlar bilan qay darajada ishlagan;

– saylovoldi targ'ibot jarayonlarining samarali o'tkazilishi;

- nomzodning, uni nomzodlikka ko'rsatgan partiya saylovoldi dasturining xalqchilligi, ya'ni odamlarni qiyayotgan muammolar yechimiga qaratilgani, ularni qiziqitirgan yo'nalishlar rivojini ta'minlovchi vazifalar aks ettirilgani;
- nomzodning siyosiy bilimiga ega bo'lishi, siyosiy madaniyati. Ya'ni, nomzod saylovga qadar aholida unga nisbatan ijobiy fikr shakllangan bo'lsa, shuningdek, saylovoldi targ'ibot jarayonlariga saylash huquqiga ega aholining ko'pchiligi qamrab olinib, tushunarli va sodda tilda o'z dasturini yetkaza bilsa hamda dastur natijador bo'lsa. Eng muhimi, siyosiy bilim va madaniyati bu g'alabaga eltuvchi asosiy qadam desak, to'g'ri bo'ladi.

### – Deputatlik faoliyatingiz davomida qonunchilikka oid hamda ijtimoiy tashabbuslaringiz haqida to'xtalsangiz...

– Shu kungacha ikkita yaxlit Qonun loyihalarning tashabbuskorlaridan bo'ldim. O'tgan davr mobaynida 20 dan ortiq nazorat-tahlil tadbiriga mas'ul bo'ldim, ular yakuni bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan qator takliflar bilan chiqdik. Masalan, partiyamiz tomonidan alohida sharoitlarda ishlashni ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini, Qo'mita tomonidan esa Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumta'lim maktablarida o'quvchilarning sog'lom ovqatlanishi uchun yaratilgan sharoitlarni, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarning bepul ovqat bilan ta'minlanish holatini o'rganish yakunlari bo'yicha kiritilgan takliflarimizdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 472-sonli qarori va unga asosan tasdiqlangan «Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish tizimini

davlat tomonidan xotin-qizlar uchun yaratilgan bunday yangiliklardan xabardorligi oshsa, xotin-qizlarning bilimli, jamiyatda faol bo'lishi farzandlarning kamolotida muhim ahamiyatga ega ekanligini anglasa, albatta, bu o'z natijasini beradi, ayollarni o'qitish, ishlashi uchun erkaklar tomonidan tashabbus ko'payadi, deb o'ylayman.

Ikkinchidan, xotin-qizlarning bunday imkoniyatlardan unumli foydalanishi holatini muntazam monitoring qilish va bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlab, tegishli instansiyalarga kiritib borishni yo'lga qo'yish kerak. Uchinchidan, ta'lim tashkilotlarida, mehnat jamoalarida ayollar orasida muntazam «Siyosiy soatlar» tashkil etilisa maqsadga muvofiq bo'lardi. To'rtinchidan, oliy ta'lim tashkilotlarida siyosatshunoslik fanini o'qitish samaradorligini oshirish, unda nafaqat nazariy, balki amaliy misollar bilan talabalar qiziqishini oshirish kerak. Bunday sa'y-harakatlar nafaqat ayollar, balki butun jamiyatning siyosiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Chunki fuqarolarning oqilona qarorlar qabul qilishi, siyosatda ishtirok etish qobiliyati stixiyali (tartibsiz) tarzda shakllanmaydi, balki yetarli bilim va tajribani muntazam o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Bunday qobiliyat esa aynan siyosiy madaniyatga erishish orqali shakllanadi.

### – Qaysi siyosatchi ayolning faoliyatini o'zingiz uchun ibrat deb bilasiz?

– Aynan mana shu ayolga o'xshashni istardim, degan fikrni bildirishdan yiroqman. Siyosatdagi har bir ayolning qaysidir xislati, qaysidir amali, qaysidir harakati men uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Ya'ni, har kimdan o'zim to'g'ri, deb bilgan jihatni olishga intilaman, izlanishdan to'xtamaslikka harakat qilaman.

### KUTING!

Navbatdagi mehmonimiz Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'rg'ori Kengesi deputati Venera Kalenova

Koordinator Feruza JALILOVA

## BUGUNNING GAPI



## AVLODLARIMIZ RIZQIGA XIYONAT QILYAPMIZ

Tadqiqotlarga ko'ra, 2040-yilga borib yer yuzi aholisining 80 foizdan ziyodi suv muammosiga duch keladi. Aholi sonining o'sishi, odamlar turmush tarzining o'zgarishi, rivojlanish va qishloq xo'jaligida suvga bo'lgan talabning oshishi natijasida suvdan foydalanish darajasi 2050-yilda 20-50 foizga, eng ko'p suv sarflanadigan soha – qishloq xo'jaligi uchun global suv talabi esa 19 foizga oshishi taxmin qilinmoqda. Xususan, 2040-yilda barcha sug'oriladigan dehqonchilikning qariyb 40 foizi o'ta yuqori suv stressiga duchor bo'lishi mumkin ekan. Bularning oldini olish uchun esa tezda suvdan tejab-tergab foydalanish choralarini ko'rish kerak. Ma'lumki, suvning oqilona iste'mol qilinishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bu uning narxi. Ko'pincha suv iste'moli haqida o'ylamaymiz va unga tekin resursdek munosabatda bo'lamiz. Misol uchun, hozir O'zbekistonda 1 kubometr ichimlik suvi uchun aholi 400 dan 3000 so'mgacha, byudjet tashkilotlari 400 dan 7500 so'mgacha pul to'layapti. Shuning uchun ham suvning narxi oshirilishi iste'molchilarni tejankorlikka undashi kerak. Biroq bu yondashuv aholining noroziligiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, bugun aholi o'rtasida suvni tejash, uning

kamayib ketishi oqibatlarini tushuntirish va bu boradagi axborotlarni yetkazish ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Toki jamiyatdagi har bir fuqaro suv resurslarini asrab-avaylash va bu bilan ekologik vaziyatni yaxshilashga hissa qo'shishi lozimligini anglab yetishi kerak. Aks holda suvga munosabat o'zgarmaydi, uning qadriga yetmay yuraveramiz. Oxir oqibatda avlodlarimiz rizqini qiyamiz...

Suv masalasida davlat siyosatida ham keskin burilish yasalishi kerak. Ya'ni, suv resurslaridan oqilona foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturlar sanoat, qishloq xo'jaligi, shuningdek, uy-joy sektorida suv iste'molini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi shart. Xulosa qilib aytganda, suv resurslaridan oqilona foydalanish jamiyat va davlatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Suvdan foydalanishni optimallashtirish va suv bozorini erkinlashtirish, qolaversa, bu jarayonlardan suvga o'gay munosabat oqibatlaridan aholi xabardorligini oshirish birlamchi vazifaga aylanishi kerak.

Farhod ZAYNIYEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



HAMID OLIMJON, ZULFIYA VA SHAROF RASHIDOVGA

## E'TIBOR SHUMI?

### JIZZAX VILOYATI HOKIMI DIQQATIGA!

Yaqinda «2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi» ijrosi doirasida Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim muzeyi Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan atqoli va iste'dodli adiblarimizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida ish boshlagan. Ayni paytda ushbu muzeyda Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim hayoti va ijodiga tegishli ashyolar hamda muxlislar tomonidan haddya qilingan buyumlar, esdalik sovg'alar saqlanmoqda. Shu o'rinda muzeyning ta'mirlalab ahvolga kelib qolganini ham ta'kidlash joiz.

– O'zbek adabiyotining atqoli namoyondalari hayotidan hikoya qiluvchi muzeyni e'tiborsiz qoldirish, bu tariximizga bepisand qarash bilan barobar, – deydi viloyat Kengashi raisi Dilshod Mirzaahmedov. Shuningdek, atqoli davlat arbobi Sharof Rashidov hayot yo'li va faoliyatiga oid bo'lgan uch mingga yaqin eksponat saqlanayotgan maskan ham bugun ta'mirlalab holatga kelib qolgan. Muzeyning ayrim devorlari nam tortib, hatto, nuray boshlagan. Tashqi bezaklar joyidan ko'chib tushgan. Ayrim eksponatlar esa talab darajasida saqlanmayapti. Ana shularni e'tiborga olib, aniqlangan kamchiliklarni hal qilish bo'yicha tegishli idoralarga so'rov chiqarish, deputatlik guruhlari tomonidan esa viloyat Kengashi sessiyasiga ushbu masalani kiritishga kelishib oldik.

Jamshid MUTALOV,  
partiyaning viloyat Kengashi bosh mutaxassisi



## TA'LIMDA:

XALQARO FAN  
OLIMPIADALARIDA 63 TA  
MEDAL QO'LGA KIRITILDI

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi faoliyatining joriy yil birinchi yarim yillik yakunlariga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda qayd etilishicha, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi birlashtirildi. Bugungi kunda tizimdagi 10 ming 296 ta maktab va 29 ming 420 bog'chada 8,5 million nafarga yaqin tarbiyalanuvchi va o'quvchi tahsil oladi. Unga salkam 700 ming nafar pedagog ta'lim va tarbiya berib kelmoqda. Ta'limda global hamkorlik, UNICEF, UNESCO, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi.

Shu kunga qadar 60 ta yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilib, 36 ta to'liq kunlik tayyorlov guruhlar joriy qilindi. 647 ming 655 nafar 6 yoshli bolalar (90 foiz) maktabga tayyorlov (tizimi bilan qamrab olinib, shundan 186 ming 881 nafari (7 ming 499 ta guruh) majburiy bepul bir yillik boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhlariga, 380 ming 544 nafari (10 256 ta) to'liq kunlik tayyorlov guruhlariga, 80 ming 230 nafari (3 ming 210 ta) qisqa muddatli tayyorlov guruhlariga qamrab olindi. Bugungi kunda umumiy quvvati 56 ming 400 o'rinning mo'ljallangan 1 ming 624 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish bo'yicha bitim imzolandi. Jahon banki, PIU, UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar birgalikda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 40 soatga mo'ljallangan qisqa muddatli malaka oshirish kursi o'quv dasturi ishlab chiqildi.

Buyuk Britaniyaning Cambridge Assessment tashkiloti bilan hamkorlikda 28 nafar maktab o'qituvchisi hamda liderlari uchun tashkil etilgan PDQ dasturi bo'yicha kurs o'tkazilib, 10 nafar pedagog Cambridge Assessment tashkilotining (PDQ) xalqaro sertifikatiga ega bo'ldi. Mahalliy fan olimpiadalarida respublika bo'yicha barcha fanlardan jami 1,15 million o'quvchi ishtirok etdi. Xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilar 8 ta oltin, 24 ta kumush, 31 ta bronza jami 63 ta medalni qo'lga kiritdi. Mintaqaviy xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilar 6 ta oltin, 23 ta kumush, 23 ta bronza jami 52 ta medalni qo'lga kiritdi.

Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida (Xalqaro kimyo olimpiadasi (ICHO) 2 ta oltin, 1 ta kumush va 1 ta bronza, Xalqaro biologiya olimpiadasi (IBO) 3 ta bronza, Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO) 3 ta bronza, Xalqaro fizika olimpiadasi (IPHO) 1 ta bronza medallari) jami 11 ta medalni qo'lga kiritdi. O'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan Masofaviy ta'lim platformasi axborot tizimiga joylashtirilgan maktab o'quv dasturiga tegishli video kontent 20 ming 452 taga, taqdimot 6 ming 372 taga va 1-4-sinf o'quvchilari uchun 3D animatsion va multiplikatsion kontentlar 738 taga yetkazildi.

Foydalanishda qulaylik yaratish uchun tizimning mobil versiyalari ham ishga tushirildi.

Muhayyo  
TOSHQORAYEVA



Missiya vakillari so'nggi yillardagi islohotlar natijasida xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ishtiroki kengayotgani, xususan, parlament a'zolarining 29,8 foizini xotin-qizlar tashkil qilayotgani, jumladan, saylov jarayonida ham xotin-qizlar faol ishtirok etganini qayd etdi.

NUQTAYI

# ISHONCH

## Yangi O'zbekiston dunyo bilan bo'ylashmoqda:

xalqaro doiradagi nufuzli siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tuzilmalarning faol ishtirokchisi, shu bilan birga, taraqqiyotga xizmat qiluvchi ko'plab tashabbuslarni ilgari surayotgan davlatga aylandi. Dunyo miqyosida o'z o'rni va ahamiyatiga ega mamlakatda bo'layotgan har qanday o'zgarish siyosiy jamiyatni, xalqaro tashkilotlarni qiziqitmasdan qolmaydi, albatta. Bunga joriy yil 9-iyuldagi muhim siyosiy tadbir – muddatidan ilgari o'tkazilgan

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yaqqol misol bo'la oladi.

Xalqaro hamjamiyat va turli missiyalar vakillari rivojlanayotgan mam-lakatda bo'lib o'tayotgan siyosiy jarayonga qiziqish bildirishi bejiz emas. Boisi, saylov – demokratiya ko'zgusi. Chunki aynan saylov jarayonida mamlakatda ochiqlik, oshkoralik, so'z erkinligi, saylash va saylanish huquqiga oid umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar amalda ta'minlangani ko'rinadi.

Shuning uchun O'zbekistonda bo'lib o'tgan Prezident saylovini 800 ga yaqin xalqaro kuzatuvchi kuzatib bordi. Ular orasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi hamda Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi, MDH va uning Parlamentlararo assambleyasi, Islom hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar va dunyoning 50 ga yaqin davlatdan tashrif buyurgan kuzatuvchilar bor edi. Bundan tashqari, mazkur siyosiy jarayon tafsilotlarini milliy jurnalistlarimiz bilan yonma-yon xorijlik OAV vakillari ham keng yoritdi.

Bu raqamlarni keltirishimizning boisi shundaki, saylov bir kunda bo'lib o'tadi. Ammo bu jarayonga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish oson ish emas. Bu mamlakat imijini va fuqarolar siyosiy maqomini belgilaydigan tadbir. Shu jihatdan ham har qanday saylov o'z mohiyatiga ko'ra, xalq irodasi bilan hamohang tarzda, mamlakat taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlaydigan, yaqin va uzoq kelajak uchun ta'sir ko'rsatadigan mazmun-mohiyat kasb etadi. Agar bu saylov mamlakat Prezidentini saylash bilan bog'liq bo'lsa, uning ahamiyati yanada ortadi.

Prezident saylovi o'tganiga ham 20 kundan oshdi. 14-iyul kuni ko'p millatli aholi xalqimiz, keng dunyo jamoatchiligi, rasmiy va jamoatchilik doiralari vakillari qayta saylangan Shavkat Mirziyoyevning o'z lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimini kuzatdi. Hammamiz davlatimiz rahbarining natqini eshitdik.

O'tgan kunlar davomida xalqaro kuzatuvchilar ham, milliy va xorijlik jurnalistlar ham mamlakatimizda Prezident saylovi yuqori saviyada va demokratik ruhda bo'lib o'tganini ko'p bor e'tirof etdi. Bu nimadan dalolat beradi? Baralla aytishimiz mumkinki, yangi O'zbekiston islohotlari nafaqat xalqimiz hayotini yaxshilashga, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar, ilm-fan sohalarida tub burlishlar, ulkan o'zgarishlarga asos bo'ldi, balki, davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, «Biz dadil oldinga intilib, qo'rquv va hadikdan xalos bo'ldik. Dunyo bizga ochildi va biz dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do'st va hamkorlar ortirdik. Yuksak irodamiz, qat'iy sa'y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor millat bo'lib maydonga chiqdik».

### XALQARO TALAB VA STANDARTLARGA MOS

Ta'kidlaganimizdek, Prezident saylovi har tomonlama xalqaro standart va talablarga munosib tarzda tashkil etildi va o'tkazildi. Shu jihatdan, bu saylovni yangi O'zbekistonning umume'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillarga sadoqati, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning amaliy namunasi bo'ldi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Binobarin, Prezident saylovida xalqaro mezonlarga mos milliy saylov qonunchiligimizga, unda belgilangan adolat, ochiqlik, oshkoralik va erkinlik kabi demokratik tamoyillarga to'la amal qilindi. Buni uchta tashkilot xulosalaridan keltirilgan quyidagi fikrlar bilan asoslasak bo'ladi.

Birinchi. Saylovdan so'ng Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (YEXHT DIIHB)

saylovni kuzatish missiyasi tomonidan dastlabki xulosa berildi. Unda YEXHT DIIHB missiyasi tarkibida 220 kuzatuvchi respublikamizning turli nuqtalaridagi qator saylov uchastkalarida bo'lib, saylovni kuzatish imkoniga ega bo'lgani qayd etildi. Har bir saylov uchastkasida saylovchilarning kelishi, ro'yaxtdan o'tishi, byulletenlarni to'ldirishi kabi barcha jarayonlar kuzatib borilgani aytiladi.

Barcha saylov uchastkalarida partiya va mahalla vakillari hozir bo'lib, jarayonning shaffofligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shgani alohida ta'kidlandi. Shuningdek, missiya vakillari so'nggi yillardagi islohotlar natijasida xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ishtiroki kengayotgani, xususan, parlament a'zolarining 29,8 foizini xotin-qizlar tashkil qilayotgani, jumladan, saylov jarayonida ham xotin-qizlar faol ishtirok etganini qayd etdi.

Markaziy saylov komissiyasi (MSK) saylovni tashkil etish va o'tkazish vakolatiga ega bo'lishi barobarida keng qonuniy vakolatlar bilan ta'minlanganiga ham e'tibor qaratildi. Ya'ni, MSK muddat qisqaligiga qaramay, saylovga tayyorgarlikni samarali boshqardi, qonunda belgilangan muddatlarga rioya qildi. Muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazib, saylov jarayonining turli jihatlarini batafsil tartibga solib turdi. Shuningdek, MSK majlislarida kelib tushgan murojaatlar bo'yicha hisobotlar e'lon qilib borildi. Bu esa saylov jarayonlari ochiqligini oshirdi.

YEXHT DIIHB missiyasi 2016-yilda ayollarning jamoat va siyosiy hayotdagi ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar boshlanganidan keyin ularning parlamentdagi soni ortganiga alohida e'tibor qaratgan.

Ikkinchi. Saylovdagi ochiqlik va adolatni ta'minlash yuzasidan Bosh prokuratura ham o'z ma'lumotlarini taqdim etdi. Unga ko'ra, siyosiy tadbirlarda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun mazkur tizimning 3 mingga yaqin xodimi safarbar etilgan. Alohida tayyorlangan 218 xodimdan tarkib topgan Bosh prokuratura va hududiy prokuraturalardagi ishchi guruhlar tizimli ravishda ish olib borgan. Xususan, saylovga doir ma'lumotlarni monitoring qilish va qonunbuzilish holatlarini aniqlashga qaratilgan tadbirlar doirasida internet axborot tizimi hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan 1100 dan ortiq xabar o'rganilib, ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari sinchkovlik bilan kuzatib borilgan. Xalqaro tashkilotlar

vakillari hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilib, ma'lumotlar uzluksiz almashilgan. Jarayonda kuzatuvchilar, partiya vakillari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlaridan e'tirozlar kelib tushmagan. Saylov jarayonida jiddiy qonunbuzilishlarga yo'l qo'yilgani aniqlanmagan.

Uchinchisi. O'zbekiston Oliy sudi mutasaddilari ham bu borada o'z xulosalarini bildirdi.

Amaldagi qonunlarimizda saylovga oid qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy va jinoyit javobgarlik ham

munosib deb bilgan nomzodga ovoz berdi. Bu jarayonda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun saylov uchastkalari ko'chma saylov qutilari, brayl alifbosidagi saylov byulletenlari bilan ta'minlangani, panduslar o'rnatilgani, surdotarjimonlar faoliyati yo'lga qo'yilgani, xorijiy davlatlardagi vatandoshlarimiz uchun ham yetarlicha sharoit yaratilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu bizning katta yutug'imiz bo'ldi. Aytish joizki, bir qarashda silliq va bayramona ruhda kechgan saylovda



Yangi O'zbekiston islohotlari nafaqat xalqimiz hayotini yaxshilashga, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar, ilm-fan sohalarida tub burlishlar, ulkan o'zgarishlarga asos bo'ldi, balki, davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, «Biz dadil oldinga intilib, qo'rquv va hadikdan xalos bo'ldik. Dunyo bizga ochildi va biz dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do'st va hamkorlar ortirdik. Yuksak irodamiz, qat'iy sa'y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor millat bo'lib maydonga chiqdik».

belgilangan bo'lib, bundan saylov jarayoni ishtirokchilarining qonunchilikka to'liq rioya etishi va huquqlari samarali amalga oshirilishini ta'minlash kafolati ko'zlangan.

Saylovga qo'yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish, saylovga tayyorgarlik ko'rish va saylov o'tkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yo'q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish bilan bog'liq qoidabuzarlik uchun biror shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilmagan.

Shu bilan birga, ovoz berishning yashirinligini buzish, saylov hujjatlarini qalbakilashtirish, imzo varaqalariga soxta yozuvlar kiritish, berilgan ovozlarni ataylab noto'g'ri hisoblash, fuqarolarning saylovda erkin ishtirok etishiga to'siqlik qilish, tahdid, aldash yoki og'dirib olish yo'li bilan monelik ko'rsatishga doir jinoyat ishlari ham sudlarning ish yurituviga kelib tushmagan.

Darhaqiqat, saylovning nechog'liq tayyorgarlik va ko'tarinki kayfiyatda bo'lib o'tgani ovoz berish yakuniy natijasida ayon bo'ldi. Xalqimiz o'zi ishongan va

erishilgan yutuqlar va xalqimizning bir ovozdan o'z Prezidentini qo'llab-quvvatlagani zamirida muhim asoslar bor. Birinchidan, xalqimiz islohotlar mohiyatini anglab yetdi va keyingi yillarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga nisbatan ishonchi ortdi. Ikkinchidan, fuqarolarimiz davlat va jamiyat qurilishida o'z ovozigaga ega ekanini tushunib yetdi. Uchinchidan, demokratik ruhda toblanayotgan jamiyatda daxldorlik hissi shakllangan yangi muhit paydo bo'ldi. Bu birinchi va ikkinchi asos muhitida paydo bo'lgan, hayotimizni tom ma'noda o'zgartirishga qodir manzara sifatida namoyon bo'ldi.

### YANGI DAVR UCHUN YANGI G'OYA VA TASHABBUSLAR KERAK

Saylovda xalqimiz oldiga tanlov qo'yildi. Kimga qaysi nomzodning maqsad va rejalari ma'qul kelsa, o'shanga ovoz berish huquqi berildi. Natijada esa Shavkat Mirziyoyev g'olib bo'ldi. Nimaga? Chunki Shavkat Mirziyoyevning Saylovdagi dasturida ko'plab dolzarb vazifalar belgilab

✓KUTING!

# YOSHILAR MASALASI

BIZ UCHUN HAYOT-  
MAMOT MASALASI




Kelgusi sonlarda



# DURDONALARI

”

«Har bir kun bu – imkoniyat, har bir kun bu – kelajak poydevori» degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik fao-liyat dasturiga aylanishi shart».



Qalandar  
ABDURAHMONOV,  
akademik

Davlat-xususiy sheriklik asosida maktablar qurish keng joriy etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim planshetlari bilan to'liq ta'minlanadi.

Farzandlari kelajagiga e'tibor qaratgan jamiyat istiqbolli bo'ladi. Chunki buning uchun sarflangan sarmoya ertaga o'n barobar, yuz barobar ortig'i bilan qaytishi tarixda o'z isbotini topgan.

Ilm cheksiz. Uning imkoniyatlari ko'p. Ulardan o'z o'rnida, samarali foydalanish esa ana shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda ayni muddaodir.

Shu o'rinda kichik bir mulohazani o'rta tashlaymiz. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish moddiy boylik qatorida inson kapitaliga ta'sir qiluvchi omillarga ham bog'liq. Inson kapitali odamlar hayoti davomida to'plagan bilimlari, ko'nikma va tajribalarini jamiyat va mamlakat salohiyatini ro'yobga chiqarishga zamin yaratishidir. Sog'lom va sifatli ovqatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va ishchilar malakasini oshirish orqali odamlarga sarmoya kiritish inson kapitali rivojiga hissa qo'shadi. Bu qashshoqlikni to'xtatish va ijtimoiy jihatdan birlashgan jamiyatni barpo etish uchun juda muhim jihat.

Jismonan sog'lom va bilimli odamlar ko'proq daromad topadi. Bu iqtisodiyotning qaysidir joyida rivojlanish bo'lishiga, oilalarga, farzandlarga sarmoya kiritilishiga ham asosdir.

Bugun dadil ayta olamizki, O'zbekiston bu borada qat'iy maqsadlarini belgilab olgan. Jumladan, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 100 ta maqsad qamrab olingan bo'lsa, shundan 34 tasi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalardir.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishida ta'lim sifatini oshirish masalasi berilgan ustuvorlik esa jamiyat kelajagini, avvalo, ta'lim sifati va ta'lim oluvchi qobiliyatini belgilab beradi.

O'zbekiston uchun, o'zbek xalqi uchun mustaqillikning har bir yili qadrlil va muhim ahamiyatli. Binobarin, o'tgan vaqt mobaynida amalga oshirilgan ishlar odamlar dunyoqarashida, hayotida katta o'zgarishlar yasadi.

Bugun yurtimizning istalgan joyiga boring, xohlagan kishi bilan gaplashing, yon-atrofida, turmushida bo'layotgan o'zgarishlar haqida to'liq inqilab gapiradi. Xalqimizning g'ayrat-shijoati,

bunyodkorlik salohiyati samarasi shaharu qishloqlarimiz qiyofasida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bular bir qarashda oddiy holatlardek tuyulishi mumkin. Lekin ularning zamirida qanchalar zahmatli mehnat yotganini anglash kerak. Har bir xalq faqat erkin va ozod bo'lgandagina o'z hayot yo'lini, kelajagini o'zi belgilay oladi. Bugun O'zbekiston xalqi ana shu erkinlik

erishgan yutuqlarni yangi natijalar bilan mustahkamlash nafaqat vazifa, balki insoniy burchga aylanishi shartligi ta'kidlanadi.

Bizning safimizga chet eldagi nufuzli oliyoghlarda o'qigan, yirik kompaniyalarda ishlagan qancha-qancha salohiyatli yoshlar kirib kelayotgani ularning timsolida, avvalo, ertangi kunimizning yangi rahbarlari, hudud, tarmoq va sohalarining

”

Shavkat Mirziyoyevning Saylovoldi dasturida 5 ta asosiy yo'nalishga e'tibor qaratishini ma'lum qildi. Bularning birinchisi – har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish. Bu mamlakat kelajagi, farzandlarimiz taqdiri uchun eng oqilona yechimlardan biridir.

Unga ko'ra, 2030-yilga qadar maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyoj to'liq qoplanadi va qamrov 100 foizga yetkaziladi. Bog'cha va maktablar filtrlangan ichimlik suv bilan to'liq ta'minlanadi. Kelgusi 7 yilda maktablarda qo'shimcha 2,5 million o'quvchi o'rni yaratish zarur. Shu maqsadda «Yiliga 500 ming o'quvchi o'rni» dasturi amalga oshiriladi. Xususi ta'limga qo'shimcha yangiliklar beriladi. Davlat xususiy sheriklik asosida maktablar qurish keng joriy etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim planshetlari bilan to'liq ta'minlanadi.

asosida o'z taqdirini o'zi belgilab, kelajak sari dadil odimlamoqda.

Prezidentimiz 14-iyul kuni o'z lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimda nutq so'zlar ekan, jumladan, shunday dedi: «Qudratli xalqimizga tayanib, aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni ishga solib, islohotlarimiz sur'ati va samarasini yanada oshiramiz, hech qachon susaytirmaymiz. Qanchalik qiyin va mashaqqatli bo'lmasin, tanlagan yo'limizdan ortga qaytmaymiz. «Har bir kun bu – imkoniyat, har bir kun bu – kelajak poydevori» degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik fao-liyat dasturiga aylanishi shart».

Chindan ham, bugun yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri boshlanmoqda. Buning uchun esa, Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundaygina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi.

Prezidentimiz nutqida millionlab insonlarning umid va ishonchini oqlash,

mohir boshqaruvchilari namoyon bo'layotgani alohida qayd etildi.

Prezidentimiz O'zbekiston yoshlariga yana bir bor murojaat qilib, bugun tarixning, zamoning o'zi ular uchun beqiyos imkoniyatlar ochayotganini, yoshlar yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni barpo etuvchi kuch ekanini alohida ta'kidladi. Ularni davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yetib, dunyoga o'z so'zini aytishga undadi. Bunda esa bugungi olingan bilim va tarbiya, ya'ni yo'naltirilgan kapital, albatta, asqatadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, dunyoda hech bir ish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Kimki aniq maqsad yo'lida harakat qilsa, ezgu niyat bilan oldinga intilsa va o'ziga ishonssa, shundaygina natija bo'ladi. Bugun bag'rikeng xalqimiz erishayotgan yutuqlar zamirida ham ana shu qudratli falsafa – harakat, ishonch va g'oliblik ruhi mujassam.

«Yangi O'zbekiston» gazetasi  
2023-yil 142-sonidan olindi.




## «TURKIY ADABIYOT DURDONALARI»

Sharof Rashidov nomidagi Jizzax viloyati axborot-kutubxona markazida «Turkiy adabiyot durdonalari» deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumi taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda Jizzax viloyati va shahar hokimliklari, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi, viloyat, shahar va tuman axborot-kutubxona markazlari rahbar va mutaxassislari hamda yoshlar ishtirok etdi. Tadbirda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi direktori Umida Teshaboyeva, Jizzax viloyati hokimining molliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Abdulvali Mustanov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashi yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etayotgani bilan bog'liq muammolarga yechim ishlab chiqish maqsadida amalga oshirilayotgan vazifalar haqida gapirdi.


– Bugun Jizzaxda nafaqat «Turkiy adabiyot durdonalari» to'plami, balki qator yo'nalishlardagi o'zbek tili lug'atlari to'plamining ham taqdimoti o'tkazish imkoniyatini yaratib bergan Axborot kommunikatsiyalar agentligiga samimiy minnatdorlik bildiraman, – deydi Umida Teshaboyeva. – Keyingi 5-6 yil ichida mamlakatimizda aholi va ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilishga hukumat miqyosida e'tibor berilayotgani bejiz emas. E'tiborlisi, barcha axborot kutubxonalar markazlariga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan yangi nomdagi kitoblarning izchillik bilan yetkazib berilayotganini ham alohida ta'kidlash joiz. Tadbir yakunida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi tomonidan Jizzax viloyati va 12 ta tuman axborot-kutubxonalar markazlariga 500 dan oshirildi. «Turkiy adabiyot durdonalari» hamda o'zbek tili lug'atlari topshirildi.

A.QAYUMOV, O'ZA

## ✓ PARTIYAVIY LOYIHALAR





AMERIKALIK SENATOR:  
«O'ZBEKISTON BILAN  
MUNOSABATLARNI  
YAXSHILASH KERAK»

AQSHlik senator Kris Merfi The Diplomat nashri uchun yozgan maqolasida O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikistonga nisbatan cheklovlarni nazarda tutuvchi «Jekson-Venik» qonun tuzatishini bekor qilish kerak, deb o'ylashini bildirgan. «Jekson-Venik» 1974-yilda yuqoridagi uch davlat yahudiylar va boshqa ozchilikni tashkil etuvchi millat vakillari emigratsiyasini cheklagan uchun ushbu davlatlarga nisbatan qo'llanilgan va ular bilan to'laqonli savdo-sotiq cheklanishi nazarda tutilgan edi. Muallifning fikricha, hozirda bu qonun eskirgan. Har uch davlat ham Isroil bilan ijobiy diplomatik munosabatlarda va yahudiy(lar) istalgan vaqtda emigratsiya qila olish imkoniyatiga ega. Shu sababli ham senator O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston bilan savdo-sotiq borasida cheklovlar bo'lmasligi kerak, deb hisoblaydi.

O'ZBEKISTONDAGI  
UNIVERSITETLAR  
YAPONIYA TA'LIM  
TIZIMIDAGI  
MAKTABLAR BILAN  
HAMKORLIK QILADI

Ayni paytda Yaponiyada bo'lib turgan Alfraganus universiteti vakillari "Kyoto Minsai" yapon tili maktabi rahbariyati bilan uchrashdi. 2001-yilda tashkil etilgan ushbu maktabning ikkita filiali bo'lib, talabalar uzoq va qisqa muddatli kurslarda tahsil oladilar. Til maktabida yaponlarning madaniyati va an'analari, kundalik hayoti haqida ham ko'proq ma'lumotlar olishingiz mumkin. Eng iqtidorli talabalar uchun uch turdagi stipendiya ham joriy qilingan. Ma'lumki, Alfraganus universitetida yapon tili yo'nalishi ham mavjud bo'lib, tomonlar aynan yapon tilini o'rgatish bo'yicha istiqbolli hamkorlik kelishuvini imzoladilar. Ya'ni, Alfraganus talabalariga Yaponiyaga borib o'qishini davom ettirish, yapon o'qituvchilariga esa O'zbekistonga kelib dars o'tish imkoniyati yaratilmoqda.

M.K.ARIMOVA

## E'TIBORSIZ QOLAYOTGAN

## SHAMSHIR

Shu gazetadan gapirma, bugun internet zamoni, hech kim gazeta o'qimaydi, deb og'izga uradiganlarga boshidan aytib qo'ya qolay: jamiyatda urchib borayotgan savodsizlikka, erkinlik deb og'ziga to'g'ri keladiganini gapirishlariga sizdaylar sababchi. Bosma nashrlarda ishlaydiganlar yaxshi biladi, birgina tahliliy maqola tayyorlash uchun ba'zan haftalar, oylar ham kamlik qiladi. Ayniqsa, nohaq jabrlangan odamni oqlash, uning taqdiridagi chigallikni yechish yoki butun boshli

yerda ishlaydiganlardan boshqaga kerak bo'lmay qolgandek. Kengroq qaralsa, bitta gazeta yoki jurnalning ahamiyati butun bir avlodni tarbiyalaydigan maktabdan, auditoriyasi katta telekanallardan ham ustun turadi. Bugun yoshi o'ttiz va undan oshgan avlod yaxshi eslaydi: olis qishloqlarga ham o'nlab nomdagi gazeta va jurnallar yetib borardi. Qishloq odamlari dala yumushlarini bajarayotib, albatta, «Sharq yulduzi»da bosilgan biror asardan gapirardi. G'iybat yoki fasodning o'rniga, «Mushtum»da urib chiqilgan rahbarlarni muhokama qilardi. Gazetalarda bosilgan, dadilik bilan yoritilgan mavzularni

turib, qaniydi shular davlat rahbarining yonida turib, xalq taqdiriga daxldor muammolarni bildirsa, aytsa deb umid qilasan. Ammo u minbarga chiqqan kuni boshqa qiyofaga kiradi. Davlat yetakchisi nima muammolar bor deb so'rasa, hammayoq gullab yashnamoqda, deydi, lof uradi. Bir oyog'i go'rdagi bo'lsa ham shu tariqa nimadandir umidvor bo'ladi. Uning gaplarini eshitib hafsalangir bo'ladi. Keyin bu gaplar rahbarga qanday ta'sir qildi ekan, deb tabiatan odil inson, maddohlarni yoqtirmaydigan yetakchining yuz-ko'ziga tikilasan: u bu gaplarning yarmiga ishonmasayam, kulib turadi.

Tushunmadimni chunmadim, osonni onson, qilingni qilin deb yozadigan bugunning chaladan ham chalasavodlari qayerdan paydo bo'ldi? Maktablarda gazeta va jurnal yo'q, boy kutubxona bor, o'qiydigan mardum yo'q. Adabiyot o'qituvchisi bilan gaplashsang O'tkir Hoshimov bilan Erkin Vohidovni ajratolmaydi, qattiq so'rasang ha eshitganman O'tkir Vohidov shoir, Erkin Hoshimov yozuvchi deydi bezrayib.

millatga yetkazilgan zararni aniqlash va xolis xulosalar chiqarish uchun jurnalist qanchalar izlanadi. Axir, bunday maqola ortida insonlar qismati turadi. U haqda bilib yozish esa asl gazetachining, shu sohada sochi oqarib, xafaqon kasalligini orttirgan muxbirning navbatdagi yildon sarhisobi sanaladi. Gazetani kim o'qiydi, ularda o'qishga arzigulik narsa bormi o'zi, deydiqanlar yaqin o'rtada yoki umuman matbuotni kuzatmaganlardir. Ko'zi ko'r odam ham bugungi nashrlarda dolzarb, tahliliy-tanqidiy maqolalar e'lon qilinyotganini ko'rib, bilib turibdi. Ammo taassuf shundaki, nishonga olingan hudud yoki biror tashkilotga tanqidiy maqola yuborilsa ham javob yo'q. Aksariyat rahbarlarning aqidasi shu: internetga (ijtimoiy tarmoqqa) chiqmasak bo'ldi. Vaholanki, boshqa idora va tashkilotlarning panjaralardan iborat dargohiga kirolmagan odamlar umid va ishonch bilan tahririyatlar eshigini qoqadi, jurnalistga dardini aytadi. Uning muammosiga darddosh va yelkadosh bo'lgan tahririyat katta bir maqola e'lon qiladi, biroq eng achinarlisi biror bir kimsa nima qilyapsan, demaydi. Matbuotga nisbatan loqaydlik shu darajadagi, gazeta va jurnallar o'sha

tilga o'ldi. Xuddi o'sha avlod vakillari o'nlab she'rlarni yoddan o'qiydi, taniqli olimlarni nomma-nom aytib bera oladi, xat yozsa xatosiz yozadi. Tushunmadimni chunmadim, osonni onson, qilingni qilin deb yozadigan bugunning chaladan ham chalasavodlari qayerdan paydo bo'ldi? Maktablarda gazeta va jurnal yo'q, boy kutubxona bor, o'qiydigan mardum yo'q. Adabiyot o'qituvchisi bilan gaplashsang O'tkir Hoshimov bilan Erkin Vohidovni ajratolmaydi, qattiq so'rasang ha eshitganman O'tkir Vohidov shoir, Erkin Hoshimov yozuvchi deydi bezrayib. Bundaylardan xafa bo'lishning keragi yo'q, chunki ularning bori shu, bo'lgani shu. Ularning qo'lida saboq olayotganlar esa ertaga kim bo'ladi, o'ylab qo'rqib ketasan, kishi. Kambag'allik ayb emas, yetishmovchilik fojia sanalmaydi, ammo savodsizlik millat kushandadir. Shuning uchun ham jadidlarimiz o'zlar uchun xalqni savodli qilishni eng oliy muddao deb bilishgan, bu borada o'z halovatlaridan ham kechishgan. Bugun bizga ana shunday jadidlar, ma'rifatparvarlar kerak. Namomatki, bugun biz bilan hamnafas ayrim adibu ziyolilarimiz ham loqayd yoki jur'atsiz. Davrasida o'tirib qolsang, kuyunib gapiradi, yurtning kelajagi haqida qayg'uradi. Uni eshita

Axir, odamning yuzi issiqda... Gap millat savodxonligi, uni gazeta va jurnal, kitobxonlikka chorlov haqida ekan, bu borada nima qilsak, naf ko'ramiz? Avvalo, turdosh, faqat muassising chizig'idan chiqmaydigan, uning hech kimga kerak bo'lmagan hisobotlarini chop etishga xizmat qiladigan nashrlarni to'xtatish kerak. Bu borada balki mushariylar orasida ijtimoiy so'rov o'tkazish ma'qul bo'lar. Negaki, bunday so'rovnomaga majburiy obunaga qarshi xolis kurashchi bo'lib xizmat qiladi. Odamlar o'zi istagan nashrga obuna bo'lsagina matbuotga jon kiradi. Ochig'i, ayrim partiyalarning gazetasi ochib qaragim ham kelaydi. Shuningdek ko'plab vazirlik va idoralarning ham nashrlarini o'ylab ko'rish kerak. Hatto, rahbarlarning o'zlarini ham o'qib ko'rmaydigan uzundan uzun hisobotlarni o'zlarini xo'jayin bo'lgan nashrlarda chop ettirish an'ansi otam tugul, bobom zamonda ham hazm qilinmagan. Nomi tuman miqyosida bo'lsa ham respublikani qamrab oladigan «Jomboy tongi», «Chag'oniyon», «Urgut sadosi» kabi gazetalarining ish uslublarini o'rganang holda, uchta-to'rtta tuman nashrlarini birlashtirish va obuna masalasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish ham yaxshi natija beradi, deb o'ylaymiz.



Auditoriyasi katta, reklama orqali daromad topishda ustuvorlikka ega davlat telekanallari har yili byudjetdan katta mablag' oladi. Obuna masalasi, Orol muammosidek yechimi bo'lmagan bosma nashrlar ham xuddi shu kabi har yili moliyalashtirilsa, shu yo'l orqali yurtimizdagi har bir maktab, litsey, texnikum, mahalla, institut va universitetlar gazeta va jurnallar bilan ta'minlansa faqat ezigulik xizmat qiladi. Yaponlar ertalab nonushta dasturxonida yegulik bo'lmasa xafa bo'lishmas, ammo gazeta ko'rinmasa ranjishar ekan. Hindistondayam hammaning qo'lida layof bor, biroq ko'chakuyda gazeta o'qiyotganini ko'rib, ko'zing quv naydi. AQSH, Koreya, Malayziya, Turkiya, Singapur, Xitoy, hatto, qo'shni Qozog'istonda ham har kuni millionlab nusxada gazetalar bosiladi, hammasining o'quvchisi bor. Bosma nashrlarga hurmat bilan qaralgan joyda jamoatchilik nazorati ham rivojlanadi. Jamoatchilik nazorati qanchalik kuchli bo'lsa, mutasaddilarning hushyorligi oshadi. Shuning uchun ham yuqorida tilgan olingan mamlakatlarda gazetaning o'z kuchi va qadri bor, ular matbuotga ishonishadi.

bilan tahririyatga kelardi va ularning iltimosi, arz-dodi xolis o'rganilardi. Hozir esa qo'shnisiga bitta olma bersa ham mana mening yaxshiligim deb ko'z-ko'z qiladiganlar bor. Agar shu blogerlik bo'lsa, jirkanish kerak bundaylardan. Halollik, vatanparvarlik, xalqqa xizmat qilish haqida bing urib yuradiganlardan birini anchadan beri taniyman. Shu odam har kuni shaxsiy hayotidan noligani noliqan. Yaqinda u bir yumalab o'zini bogladi deb e'lon qilidi va shu kunlarda eng so'nggi rusumdagi mashina minib yuribdi. Bundaylar kimning erkasi? Nega ular boshqalarga kibr bilan qaraydi? Nega ular jurnalistikada ko'p yillar ishlagan ustidan kuladi? Ism-sharifini yozolmaydigu, tahrir ustalarini mazax qiladi? Ko'rsavodlik qachongacha davom etadi? Ijtimoiy tarimoq orqali ko'chada yotgan chiqindini ko'rsatishdan ko'ra o'shani o'zing olib tashla, ana shu ibrat bo'ladi. Qiyalib qolgan mahalladoshing, yurtdoshingni bildirmay, xolis yordam berib yuraver, axir bunday ishlar ota-bobolarimiz tomonidan azaldan bajarib kelingan, lekin ko'z-ko'z qilish uyat sanalgan. Aytmoqchimaniki, blogerlik va jurnalistika tamoman boshqa-boshqa tushuncha. Jurnalist xolis surishtiruv o'tkazadi, muammo mohiyatini chuqur o'rganadi. Zinhor-bazinhor «xayp» uchun, piar uchun shoshma-shosharlik qilmaydi. Mana shu nuqtayi nazardan olib qaralganda asl jurnalistikaning, so'zning qadrini ulug'lovchi matbuotning o'zni benihoya ulug'ligi yanada namoyon bo'ladi. Shunday ekan, matbuotni asrang, avaylang, uni bugungi arosatdan qutqaring. Zero, Shavkat Mirziyoyev ko'p bora ta'kidlaydigan «Adolatning chinakam lashkari – matbuotchilardir». Lashkarning shamshiri qarovsiz qolmasa u charxlanib boraveradi...

Yigirma yildan beri gazeta tahririyatlarida ishlab kelayotgan kishi sifatida keyingi yillarda bir narsadan ajablanadigan bo'ldim. Shikoyatchilar, haq-huquqi poymol etilganlar blogerlarga murojaat qiladigan bo'lishdi. Bloggerman degani esa kattagina pul evaziga murojaatchilarning tashvishini o'rganar ekan. Ana xolos, tahririyatlarga ham har kuni o'nlab murojaatchilar keladi, ammo ulardan pul olib jurnalist surishtiruv o'tkazilganligini ko'rmadim ham, eshitmadim ham.

Vaholanki, tahririyatlarda bu kabi muammolar surishtirilgan, tanqidiy maqolalar berib kelingan, juda ko'plab muammolar bartaraf etilib, arzgo'yning quvonchiga sabab bo'lingan. Bunday ishlar har kuni ro'y bergan, biroq uni na tahririyat, na tahririyat xodimi ko'z-ko'z qilgan. Sud, prokuratura kabi idoralari eshiklarini ochishga qurbi yetmaganlar umid

## MUNOSABAT

## Bo'lar millat bolasinini botirim der

Ozarbayjonga borib keldim. E'tiborimni tortgan bir-ikki masalaga to'xtalmoqchiman. Birinchisi, ozar do'stlarimiz o'z ulug'larini e'zozlashni bilishar ekan. Ishoning, bu juda muhim masala. Biz iste'dodli odamlar, Vatan uchun butun umrini bag'ishlaganlar qadriga yetmaymiz... Ba'zan bundan yuz yil oldin o'tib ketgan bir jadidimiz haqida ikki og'iz to'g'ri gap aytishniyam eplay olmaymiz.

Ikki xotira maydonida bo'ldik. Birida Aliyevlar sulolasidan tortib Muslim Magomayev, el tanigan va tan olgan kishilarning xoki qo'yilgan. Ularning qabrlari davlat e'tibori, muhofazasida, sokin va muazzam etib bunyod etilgan. Qabrstonida esa tozalik va o'zgacha ruh bor. Odamlar har kuni bu yerga kelib o'z ulug'larini ziyorat qilishadi, farzandlariga ularni tanishtirishadi, bu juda katta tarbiya va madaniyat, aslida. Ikkinchi maydon – Shahidlar xotirasi maydoni. Bu maydonda yurt ozodligi uchun jon berganlar nomma-nom, har birlarining surati katta hurmat bilan terib qo'yilgan, bu asl madaniyat va tarbiyadir. Biz vatanni sevish degan gapni butunlay unutgandekmiz. Shushaga borar ekanmiz, yo'l bo'ylab urushda halok bo'lganlarning yuzlab portretlari va ularga ehtirom bilan yozilgan so'zlarni ko'rdik. Bu ham tarbiya, madaniyat, xalqning birligi va hamjihatligi uchun... Endi o'zimizga qaytsak: bizda bitta Chig'atoy qabrstoni bor, u yerdan ham kimning kuchi yetsa o'sha joy oladi, yetmasa... Nazarimda, erta bir kun bu ishlarining nazoratchilari ham o'tadi-ketadi. Bir zamonlar oydinlarimizga bir enlik nekrolog e'lon qilishga ruxsat berish vakolatini o'zida qariyb yigirma yil saqlab kelgan bir rahbar yaqinda vafot etibdi. O'zigayam nasib etmadi, na bir enlik nekrolog va na e'tibor, odamlar hatto uning o'lganini eslamadilar ham. Bu endi tarbiyasizlik va madaniyatsizlikdir. Xo'sh, qay biri ma'quuroq? Menimcha, bu masalada



har bir insonning o'ylashi tabiiy: ertaga bizni kimdir eslaydimi? Shu aziz yurtini deb jonimizni jabborga berganimizning javobi nima bo'ladi? Odamlar hech bo'lmasa bir duo qilib qo'yarmikanlar? Nazarimda, bizda muqaddas tushunchalar butunlay unut bo'lib ketayotgandek tuyulayapti. Umr esa oqar suvdek o'tib ketmoqda. Bir o'ylab ko'raylik, azizlar. Keyin kech bo'lmasin...

Husan ERMATOV



Maqsud JONIXONOV





# QORA MUSHUK

Panjasini...

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i, general-mayor Azizbek Ikramov diqqatiga!

Quyidagi maqola 1,5 yilcha avval, «Ichki ishlar vazirligi Farg'ona viloyati boshqarmasining sobiq boshlig'i, polkovnik Muhiddin Jo'rayev diqqatiga» rukni ostida e'lon qilingan edi. O'tgan davr mobaynida jabrlanuvchilar haqiqatni yuzaga chiqarish uchun ne-ne idoralar ostonasiga «bosh» urmadilar. Hatto, o'z kuchlari bilan bo'lsa-da, «vejdok»lar topib, tergovchilarga taqdim etishdi. O'shanda maqolamiz ta'sirliroq bo'lsin, boshqarma boshlig'i e'tiborini tortsin deya Muhiddin Jo'rayevga o'ziga xos murojaat ham qilgandik: «Farg'ona ahli, xususan, ko'plab soha vakillari Sizga «o'ta prinsipial va halol» degan ta'rif berishdi. Bundan tashqari, ushbu maqola sabab Sizda kimlar bilan ishlayotganingiz, Davlat rahbari e'tiborida turgan qatlam vakillari muammolariga IIBning ayrim quyi bo'g'in xodimlari qay darajada munosabatda bo'layotganini bilib olish imkoniyati ham paydo bo'lmoqda!»

Quyvonarli tomoni shundaki, maqolaga Ichki ishlar vaziri hamda u kishining tergov bo'yicha o'rinbosari tezda e'tibor qarattirdi, tez orada ushbu bahstalar masala nazoratga olindi, hatto murojaatchilar vazirlikka taklif etilib, ularning fikr-mulohazalari bir necha bor eshitildi. Ammo murojaatchilarga birgina Muhiddin Jo'rayevning e'tiborini qozonish nasib qilmadi... Bir so'z bilan aytganda, Farg'ona IIB rahbarining matbuotga e'tiborsizligi hamon o'z «so'zi»ni aytib kelmoqda... Muddaoga o'tish va maqsadimizni tushuntirishdan avval o'sha maqolani qisqartirilgan holda yana o'quvchilar e'tiboriga havola etsak: «...Mana 16 oydirki, farg'onalik tadbirkor Rayimjon Uzoqov adolat istab, viloyatdagi katta-kichik idoralar ostonasida sarg'ayib yuribdi: «Men – Uzoqov Rayimjon 1982-yilda Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi «Dahana-Qaqir» MFYda tug'ilganman. Oilaliman, 4 nafar farzandim bor. Qator yillardan buyon tadbirkorlik bilan shug'ullanaman va hozirda «NON-SHOH Plast» MCHJ ta'sischisi va rahbariman. 2019-yil 1-aprel kuni 1-sonli shartnomaga asosan Qo'qon shahridagi «Texnika» MCHJdan umumiy qiymati 532 mln. so'mlik polietilen chiqindilarni qayta ishlash dastgohini oyiga 40 mln. so'mdan to'lash sharti bilan ijara oldim. Ushbu uskunani Marg'ilon shahridagi sobiq gaz apparatlari ishlab chiqarish korxonasi hududiga tashkilot rahbari Umar Hoji Mahmudovning taklifi bilan o'rnatdim. Chunki u menga kerakli xomashyo sotib olish uchun zarur mablag'ni berib turish va evaziga qayta ishlangan mahsulot sotuvidan tushgan sof foydani teng bo'lishishni taklif etgandi. O'z shaxsiy joyim bo'lmagan uchun ushbu shartlariga ko'ndim. Xullas, 2020-yilning noyabr oyida sherikchilik asosida ish boshladik. Dastlab, ishimiz yaxshi boshlandi. Tayyor xomashyoga xaridorlar paydo bo'ldi. Bu orada viloyat «Mikroreditbank»da yillik 21 foiz ustama bilan bir yilda qaytarish sharti asosida

600 mln. so'm kredit ham oldim. Maqsadim ishlab chiqarishni yanada kengaytirib, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish va xomashyo sotib olish edi. Ha, darvoqe, mazkur kreditni olishda ijaraga olingan polietilen chiqindilarni qayta ishlovchi uskunani uni ijaraga bergan egasining roziligi bilan garovga qo'ydim. Ishim rivojlanib ketdi. 100 nafar odam ish bilan ham ta'minlandi. Ularning o'rtacha oylik maoshi 2-4 mln. so'mni tashkil eta boshladi, foyda ham ko'paya bordi. Ammo kutilmaganda sherigim Umar Hoji Mahmudov meni sherikchilikdan butunlay chetlatib, ishlab chiqarish sexiga kiritmay qo'ydi. Uni insofqa chaqarish uchun ko'p urindim, ammo u men bilan gaplashishni ham istamad. Shu tariqa kunlar va oylarni o'tkazib Hoji akaning insofqa kelishini kutdim. Biroq bunday bo'lmadi, aksincha 2021-yilning fevral oyida men tomonimdan ijaraga olingan dastgoh yo'qolib qolganini eshitib qoldim. Buni eshitgach, zudlik bilan Farg'ona viloyat IIB rahbari nomiga ariza yozdim. Shu o'rinda qayta ishlash dastgohi o'rnatilgan 2020-yilning noyabridan 2021-yilning fevral oyigacha, ya'ni dastgoh yo'qolib qolgunicha 356 tonna mahsulot ishlab chiqarib, sof foydani o'rtacha 550-600 mln. so'mga chiqargandim. Ana shu daromadning teng yarmi sherikchilik asosida menga tegishli bo'lsa-da, Umar Hoji Mahmudov menga hatto sinq tangani ham ravo ko'rmadi. – Men chiqindilarni qayta ishlash dastgohini U.Mahmudovga qarashli korxonada hududiga olib kelib o'rnatilishidan to'ishga tushirilib, so'ngra sirlil ravishda «yo'qolib» qolgunigacha bo'lgan jarayonda to'liq ishtirok etganman, – deydi Rayimjon Uzoqov. – Nima qilay, oxir-qabirat respublika Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga arznoma yozdim. Ana shu murojaatdan so'ng viloyat IIB yana ishni qayta ko'ra boshladi. Ungacha shahar va viloyat IIB mas'ullari dastgoh bir oyda o'rtacha 150 mln. so'm sof foyda keltirishini, 2020-yilning noyabr oyidan 2021-yilning fevral oyi oxirlarigacha esa o'rtacha

600 mln. so'm sof daromad uzzukun ko'rdim. Mana 1,5 yildirki, og'irligi 12 tonna, uzunligi 36 metr bo'lgan butun boshli dastgoh yo'q. Hududda uzoq vaqt ishlagan mexanik sifatida ishonch bilan ayta olamanki, bu yerda 12 nafar savlatidan it tugul tuya ham hurkadigan qorovullar tun-u, kun ishlardi. Bu yerga birov kirishi tugul pashsha ham uchib chiqishi amrimahol edi. Qolaversa, qabuliga kirish juda qiyin ekanini o'tgan 16 oy mobaynida bildim. Eng qizig'i, viloyat IIBdagi tergovchilar oxirgi paytlarda meni tuhmachiga chiqara boshlashdi. Ya'ni, uskunani men o'zim olib ketgan, endilikda Umar Hoji Mahmudovga tuhmat qilayotgan emishman. Buni uning ko'rsatmasi isbotlab turganmish». Bular avvalgi maqoladan iqtiboslar. Mana, maqola e'lon qilinganidan keyin ham bir

jiddiy qaray boshlaganlarini eshitdik. Bu esa albatta, Ichki ishlar vazirligi va vazirlik mutasaddilarining sa'y-harakatlari bilan bo'layotgan ishdir. Lekin Farg'ona IIBga yangi rahbar tayinlangani ko'pchilik mahalliy tadbirkorlar qatori o'z dastgohining o'g'risiga chiqarilgan fuqaroni ham quvontira boshladi. Balki chindan ham yangi rahbarning poyqadami yoqib, ko'p

2019-yil 1-aprel kuni 1-sonli shartnomaga asosan Qo'qon shahridagi «Texnika» MCHJdan umumiy qiymati 532 mln. so'mlik polietilen chiqindilarni qayta ishlash dastgohini oyiga 40 mln. so'mdan to'lash sharti bilan ijara oldim.

hududda 24 ta kuzatuv kamerasi uzzukun ishlab turardi. Endi o'sha korxonada ishchilaridan birining quyidagi fikrlariga e'tibor berib: «Aniq esimdiki, men 2021-yilning 9-may kuni, ya'ni oradan 69 kun o'tgach, Rayim Uzoqovga tegishli bo'lgan dastgohni xuddi shu korxonaning omborida qismlarga bo'linib, taxlab yo'yilganini ko'rganman. Arizaga binoan, korxonaga kelgan IIB xodimlariga bu haqda aytam xotmayishib, gaplarimni eshitishni ham istashmadi. To'g'risi ular korxonada omborini ko'zdan kechirishni o'zlariga ep ko'rishmadi. Zotan ular apreil oyida kelishganda uskunalar omborda taxlanib yotgandi...» – Xullas hozirda «Texnika» MCHJ bilan tuzilgan ijara shartnomasiga asosan 680 mln. so'm, viloyat Mikroreditbankining 600 mln. so'm kredit qarzdorligi to'g'rimdan g'ripa bo'g'ib turibdi, – deydi Rayimjon Uzoqov. – Nima qilay, oxir-qabirat respublika Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga arznoma yozdim. Ana shu murojaatdan so'ng viloyat IIB yana ishni qayta ko'ra boshladi. Ungacha shahar va viloyat IIB mas'ullari dastgoh bir oyda o'rtacha 150 mln. so'm sof foyda keltirishini, 2020-yilning noyabr oyidan 2021-yilning fevral oyi oxirlarigacha esa o'rtacha

muammoli masalalar qatori bu ishda ham asl aybdorlar topilar... Maqolaga nuqta qo'yarkanmiz, bir masalaga oydinlik kiritish lozimdek ko'rindi. Shu ishda xabar topgan ayrim fuqarolar Rayim Uzoqovning o'zi ham «oppo» emasligini ko'p bora takrorlashdi. Ha, bo'lishi mumkin. Uning xatti-harakatlari, ayniqsa, keyingi paytlarda ishlari yurishmay, hali u, hali bu fuqarodan qarz olishga urinayotgani, bir tomonda bank oldidagi qarzdorligi unga bo'lgan ishonchni yo'qqa chiqarayotgandir. U ayrimlar aytayotgandek, muttaham, yolg'onchi, va'daboz ham bo'lishi mumkin. Ammo ushbu fuqaro boshiga tushgan ko'rguliklar, ulkan qarzdorlik – o'sha dastgoh yo'qolganini sabab yuzaga kelmadimi? Bas, shunday ekan, avval yo'qolgan dastgohni topish kerak... Barcha guvohlar, o'sha korxonada ishlaganlar, ayniqsa, qorovullar xolis so'ralsa, erinmasdan voqealar tahlil qilinsa, ko'rsatmalar, sanalar qiyoslansa qorovullar xonadagi qora mushuk yorug'likka chiqar va panja izlarini yashirolmay qolarmidi? Ana undan keyin ikkinchi darajadagi ishlarga o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi...

Umid ARSLONBEKOV

## XALQARO HAYOT



**«YAPONIYA ICHKI ISHIMIZGA ARALASHMASIN! TAYVAN BIZNIKI!»**  
XXR Mudofaa vazirligi Yaponiyani Xitoyning ichki ishlariga aralashishdan va Tayvan bo'g'ozida keskinlik yaratishdan ogohlantirdi. Xitoy Mudofaa vazirligi rasmiy vakili Tan Kefeyning aytishicha, Tayvan Xitoyning bir qismidir va «Yagona Xitoy» tamoyili Xitoy-Yaponiya munosabatlarining siyosiy asosidir. «Yaponiya o'z muammolari haqida o'ylash o'rniga, xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy me'yorlarni, to'rtta Xitoy-Yaponiya siyosiy hujjatining mohiyatini, shuningdek, Xitoy-Yaponiya munosabatlarining siyosiy asosini buzgan holda Xitoyning ichki ishlariga aralashishda davom etmoqda. Bu esa o'zaro munosabatlarga putur yetkazadi», deb bayonot berdi Kefey.

### GANS DAVLAT TO'NTARISHIDAN OGHOHLANTIRDI



Isroil sobiq mudofaa vaziri, Isroil Knesetidagi muxolifat koalitsiyasi yetakchilaridan biri Benni Gans, agar Benyamin Netanyahu Oliy sud qarorlarini hurmat qilmasa, hokimiyatning qonuniyligini yo'qotishini, bu esa Isroilda davlat to'ntarishiga sabab bo'lishi mumkinligini aytdi.

### O'ZGA SAYYORALIKLAR MAVJUD BO'LISHI MUMKIN

Qo'shma Shtatlarda halokatga uchragan o'zga sayyoralik kemalardan «inson bo'lmagan» uchuvchilarning qoldiqlari topildi. Bu haqda amerikalik sobiq razvedkachi David Grush qasamyod ostida ma'lum qildi. Uning ta'kidlashicha, o'zga sayyoraliklar mavjud va AQSH hukumati noma'lum uchur jismlar va inson bo'lmagan jismlarga ega. Grushning qo'shimcha qilishicha, AQSH harbiylari va Markaziy razvedka boshqarmasi xodimlari shaxsan noma'lum uchuvchi jismlarga duch kelgan.

### AFRIKA ROSSIYANING TAKLIFINI RAD ETDI

Janubiy Afrika Respublikasi prezidenti Siril Ramafosa Vladimir Putinni don bitimini tiklashga va Qora dengizdagi Ukraina portlarini to'sib qo'ymaslikka chaqirdi. U Rossiyaning Afrikaning olti davlatiga tekin don yetkazib berish taklifi uchun minnatdorlik bildirdi. Biroq u bu mamlakatlar uchun «xayriya yordami» olishdan ko'ra, don bo'yicha kelishuvda ishtirok etish muhimroq ekanini ta'kidladi, deyiladi Kreml saytidagi stenogrammada. «Biz Qora dengiz g'alla tashabbusini amalga oshirishni taklif qildik, Qora dengizni ochish zarurligi haqida gaplashdik, Qora dengizning jahon bozorlari uchun ochiq bo'lishini istashimizni aytdik. Biz bu yerga Afrika qit'asi uchun qandaydir «sovg'a» so'rash uchun kelganimiz yo'q. Albatta, siz saxiylik qilib ma'lum qiyinchiliklarga duch kelayotgan ayrim Afrika mamlakatlariga don berishga qaror qilganingizni tushunamiz. Biz bunga katta hurmat bilan qaraymiz va buni qadrlaymiz. Biroq, bu bizning asosiy maqsadimiz emas», deya ta'kidlagan Ramafosa o'z bayonotida.

### «VAGNER»CHILAR CHEGARAGA JOYLASHTIRILDI

Polsha Bosh vaziri Mateush Moravetskiyning aytishicha, 100 dan ortiq yollanma askar Polsha chegarasiga, Kaliningrad viloyatidan Belarusni ajratib turuvchi Suvalka koridori hududiga joylashtirildi. «Ehtimol, ular belaruslik chegarachilar qiyofasini kiyib, mamlakatni chegaralarini qiyofasini maqsadida noqonuniy muhojirlarga Polshaga kirishga yordam berishar», deydi Moravetskiy.

Internet ma'lumotlari asosida Feruza XODJAYEVA tayyorladi.





# Aboullo Oripov

## O'zbekiston

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirlar bor, o'z yurtin butun —  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyori,  
Bir o'lka bor dunyoda, biroq  
Bitilmagan dostondir bori:  
Faqat ojiz qalamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasan hech behishtni izlab,  
Topolmasam chekmasman alam.  
O'tirmasman ertaklar so'zlab,  
Musallo deb yo'nmasman qalam.  
Ko'klamindan olib sururni,  
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,  
G'afur G'ulom tuygan g'ururni  
Qilmoq mumkin dunyoga doston.  
O'lis tarix qadamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,  
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.  
Maqtamasman moziyini biroq,  
O'tmishingni o'yayman bir zum.  
Zabtga olib keng Osiyoni,  
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,  
Ikki asr yarim dunyoni  
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.  
Aytgum, bu kun, u manim, manim.  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'z ketsa zinhor,  
Bir kalom bor gap avvalida.  
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor  
Ko'ragoniy javdallarida.  
Qotil qo'li qilich soldi mast,  
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.  
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,  
U, Ulug'bek ko'zidagi yosh.  
Yerda qolgan, o, tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'z oldimdan kechar asrlar,  
Ko'z-ko'z etib nuqsu chiroyin.  
Sarson o'tgan necha nasllar,  
Topolmasdan tug'ilgan joyin.  
Amerika — sehrli diyori,  
Uxlar edi Kolumb ham hali,  
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,  
Beruniyning aql mash'ali.  
Kolumba bor alamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,  
Hammasiga guvoh yer osti.  
Lekin, do'stlar, she'r ahli rosti  
Jahongiri kam bo'lar, rosti.  
Besh asrkim, nazmiy saroyini  
Titratadi zanjirband bir she'r.  
Temur tigi yetmagani joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.  
Dunyo bo'ldi chamanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'zladim, ammo  
Bir zot borkim, baridan suyuk:  
Buyuklarga baxsh etgan daho,  
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.  
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin  
O'zi emay o'g'luga tutgan.  
Sen o'zingsan, farzandlar shonin  
Asrlardan opichlab o'tgan.  
Ona xalqim, jon-tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,  
O'tdi Buddha, o'tdi Zardushti.  
Har uchragan nokasu nodon,  
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.  
Seni chingiz g'azabga to'lib

Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.  
Jaloliddin samani bo'lib  
Sakrab o'tding Amudaryodan.  
Sensan o'shal samanin manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Toleingda bor ekan yashash,  
Goh qon ichding, gohida sharob.  
Etmoq bo'lib yurtim xomtalash,  
Bosh ustingga keldi inqilob.  
Chora istab jang maydonidan  
Samolarga uchdi unlarin,  
Shahidlarning qirmiz qonidan  
Alvon bo'ldi qora tunlarin,  
Qonga to'lgan kafanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Lekin o'fob poymol o'lmas,  
Kavaklarda qolmas oy nuri,  
Odil hakim — Haq bor, beg'araz,  
Mazlumlarning buyuk g'amxo'ri.  
Qilich serpab tole tongida  
O'zligini tanib qolding sen.  
O'g'lonlarning qatqa qonida  
O'zbekiston nomini olding sen.  
Nomi qutlug' gulshanin manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Tinch turarmi bu ko'hna olam,  
Tinch turarmi dog'uli zamon.  
Oromingni buzdi sening ham  
Fashist degan vahshiy olomon.  
Qonim oqdi Dansigda manim,  
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.  
Lekin, yurtim, kezolmas g'anim.  
O'zbekiston atalgan bog'da.  
Sensan nomus va sha'nin manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,  
Derazamdan boqardi birov.  
U sen eding, o, dehqon yurtim,  
Turar eding yalang'o'sh, yayov.  
— Tashqarida izzilar yomg'ir,  
Kir, bobojon, yayragil bir oz.  
Deding: — Paxtam, qoldi-ku axir,  
Yig'ishtiray kelmasdan ayoq.  
Ketding, umri mahzanin manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Sen ketarsan balki yiroqqa,  
Farg'onada balki, balqarsan.  
Balki chigil oqargan toqqa,  
Cho'pon bo'lib gulxon yoqarsan.  
Balki ustoz Oybekdek to'lib  
Yozajaksan yangi bir doston.  
Balki Habib Abdulla bo'lib,  
Sahrolarda ochajaksan kop.  
Tuprogi zar, ma'danim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,  
Fazolarga qo'ysang ham qadam,  
O'zligini unutmang aslo,  
Unutmang hech, onajon o'lkam.  
Bir o'g'lingdek men ham bu zamon  
Kechmishingni qildim tomosha.  
Iqbolingni ko'roldim ayon  
Istiqolning uflari osha.  
Iqbol hur, sho'x-shanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,  
Zavol bilmas shu yoshing bilan.  
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,  
Do'stu yoring, qaradoshing bilan.  
Asrlarning silsilasida  
Boqiy turgay koshonang sening.  
Ulug' bashar o'lasida  
Mangu yorug' peshonang sening.  
Mangu yorug' maskanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

## FIDE JAHON KUBOGI

### NAVBATDAGI DOVONNI ZABT ETISH ARAFASIDAMIZ!

1-o'rinni qo'lga kiritgan shaxmatchi 111 ming, 2-o'rin 80, 3- va 4-o'rin sohiblari 50 ming AQSH dollari bilan taqdirlanadi...

Boku shahrida bo'lib o'tayotgan shaxmat bo'yicha nufuzli turnir – "FIDE jahon kubogi"ning dastlabki tur bahslari ortda qoldi. 31-iyul kuni bo'lib o'tgan birinchi bosqichning 2-o'yinlarida Javohir Sindarov va Nodirbek Yakubboyev raqiblarini mag'lub etib, 2-turga yo'l olgan bo'lsalar, Shamsiddin Vohidov yana durang o'ynadi. U endi tay-brekdada durang suradi. Musobaqada ishtirok etayotgan Nilufar Yakubboyeva afsuski, o'z ishtirokini yakunladi. Eslatib o'tamiz, Nodirbek Abdusattorov reytingi yuqori bo'lgani uchun 2-raunddan bahslarga kirishadi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning eng kuchli 206 nafar erkak hamda 106 nafar ayol shaxmatchisi kuchi

sinashayotgan mazkur turnirda uchta sovrinli o'rinni egallagan shaxmatchilar 2024-yili shaxmat toji davog'arlari turniriga yo'llanmani qo'lga kiritadi. 30-iyul – 24-avgust kunlari o'tkaziladigan joriy Jahon kubogining umumiy sovrin jamg'armasi 2,5 million AQSH dollaridan ziyodni tashkil etmoqda. Rasmiy manbalarda qayd etilishicha, 1-o'rinni qo'lga kiritgan shaxmatchi 111 ming, 2-o'rin 80, 3- va 4-o'rin sohiblari 50 ming AQSH dollari bilan taqdirlanadi. Shuningdek, musobaqa nizomiga muvofiq, 1/128 dan 1/4 finalgacha bo'lgan bosqichlarda qatnashgan har bir shaxmatchi ma'lum miqdordagi mukofot pullariga ega chiqadi.



Internet manbalari asosida tayyorlandi.

## SAVOI BERINGI

**?** – O'zbekistonda suv tanqisligi sababli mevasabzavotlarning narxi oshadi, deb eshitdim. Shu to'g'rimi?

Valijon Qobilov, Sirdaryo tumani

– To'g'ri. Oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotida uzilishlar to'liq bartaraf etilmagani, iste'mol talabining yuqoriligi, mintaqada suv tanqisligi muammosining jiddiy tus olayotgani sharoitida meva va sabzavotlar narxida yuqori tebranishlar kuzatilishi mumkin. Markaziy bank Axborot xizmati

**?** – Qizim ma'lum muddat Janubiy Koreyada o'qituvchi bo'lib ishlagan. Lekin u yerda o'qituvchilarga hech qachon ishdan bo'shshga ruxsat berilmaydi deb eshitdim. Shu to'g'rimi?

Zamira Begimova, Toshkent shahri

– Yo'q, noto'g'ri. Mehnat shartnomasini ikkala tomonning roziligi bilan o'zaro kelishuv asosida bekor qilish mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi ixtiyoriy ravishda ham iste'foga chiqishi mumkin. Ammo ish beruvchi ushbu vaziyatdan 30 kun oldin ogohlantirilishi kerak. Ish beruvchi tomonidan viza olish uchun homiylik qilingan o'qituvchilargagina shartnoma muddati tugamaguncha ish beruvchining roziligi bilan o'zaro kelishuv asosida bekor berilmaydi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Axborot xizmati

**?** – Eshitishimcha, Hindistonning Mumbay shahrida mashina haydovchilariga signal chalish taqiqlangan ekan. Shu to'g'rimi?

Aslanbek Boburov, kolleji o'quvchisi

– Ha, to'g'ri. Chunki Mumbay yo'llarida shovqinning 70 foizi mashina signali bilan bog'liq. Bu muammoga kreativ yechim topish maqsadida mashina signallarining ovozi 85 dB dan oshib ketgan taqdirda svetofoorning qizil chirog'i yonish vaqti qaytadan hisoblanadigan qilib qo'yilgan.

**?** – Keyingi yildan O'zbekiston fuqarolari bepul sayohat qilishi mumkinligi belgilanibdi. Agar shu to'g'ri bo'lsa, qaysi manzillarga sayohatlar uyushtiriladi va aynan kimlar sayohatga bora oladi? Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Xosiyat Rajabova, Hazorasp tumani

– «To'siqsiz turizm» dasturi asosida O'zbekistonning turizm salohiyati yuqori bo'lgan shaharlariga bepul sayohatlar tashkil qilinishi ko'zda tutilgan. Ammo bu kabi sayohatlarga borish uchun nogironligi bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 1000 nafardan shaxs tanlab olinishi belgilangan. Davlat turizm qo'mitasi Axborot xizmati

**?** – Aprel oyida mehnat ta'tiliga chiqqandim. Shu kunlarda ishxonamdagi sovutish tizimi nosozligi sababli ishlamayapti. Anomal issiq kunlarida navbatdagi mehnat ta'tilini olsam bo'ladimi?

Shuhrat Islomov, Sho'rchi tumani

– Ha, bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 361-moddasida ish xonadagi harorat va ventilyatsiya 22-25 darajadan, havo namligi esa 75 foizdan oshmasligi belgilab qo'yilgan. Agar belgilangan me'yordan oshib ketgan bo'lsa, xodimlar o'z ish haqini saqlagan holda, ishga bormaslikka haqlidirlar. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Matbuot markazi



Sahifani internet ma'lumotlari asosida Feruza XODJAYEVA tayyorladi.

### ELDOR ASANOV «ABRAKADABRA» CHILAR TILINI HAM O'RGANIBDI

Taniqli olim va bloger Eldor Asanovning yozishicha, yaqinda unga bir jiyani g'alati surat ko'rsatibdi. Tushuntirishicha, kimdir uning tanishiga yomonlik qilish maqsadida folbin yoki mullaga duo «zakaz» qilib, yozdirib, o'qitib, kerakli amallarini qilib, eshigingning tagiga ko'mib ketganmish. Tanishi «zakaz»ni topib olibdigu, endi nima bo'larkin, deb qo'rqib yurganmish...

Mendan bu o'qitilgan qog'ozchada qanday duo yozilganini o'qib berishni so'rashdi, deb yozadi Eldor Asanov. Shuncha harakat qilsam ham, na arabcha, na forscha, na turkcha orqali matnini o'qiy olmadim. Bilimim yetmadi shekilli, degan xayolda fors tilini zo'r biladigan bir tilchi tanishimga ko'rsatdim. Uning xulosasi: «Bu yozuv emas, abrakadabra. Arab xatini bilmaydigan odam arabchaga o'xshatma qilib yozgan». Rostdan, e'tibor bersangiz, arabchaga o'xshatib burama qilib yozib, tavadakkal nuqtalar qo'ygan, bir xil burmalarni yonma-yon takroran yozib tashlagan, o'qilgan taqdirdayam «dardar», «sarsar»ga o'xshagan aljirash kelib chiqadi. Xullas, kimdir, kimgadir

yomonlik qilmoqchi bo'lgan. Eskicha qilib o'qitib, kasal qilaman yoki o'ldirvoraman, deb niyat ham qilgan. Bir folbinga borib, o'qitib berishni so'ragan. Albatta, xarajat qilgan, bunday xizmat duoning «kuchi»ga qarab 300 ming so'mdan boshlanib, bir necha yuz dollargacha turarkan. Folbin arabchaga o'xshatma qilib abrakadabra usulida yozib berib, mana o'qiddim, duosini yozdim, falon joyga ko'mib kel, deb o'sha o'qitmani «buyurtmachi»ga bergan va soqqasini olgan. Natijada yomonlik qilaman, degan odamning o'zini axmoq qilishgan. Hali «yorvordim, yaqinda o'ladi», deb xursand bo'lib ham o'tirgandir... Eh, odamlar! Kulaymi, yig'laysmi, bilmayman...



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY-GAZETASI

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**  
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,  
Abror PO'LATOV,  
Amriddin BERDIMURODOV,  
Akmal JUMABOYEV,  
Bahodir MAMATXONOV,  
Ilhom ABDULLAYEV,  
Ibrohim G'OFUROV,  
Iroda DADAJONOVA,  
Minhojiddin MIRZO,  
Nodir MUXTOROV,

Odiljon TOJIYEV,  
Olim O'SAROV,  
Otabek JIJANBOYEV,  
Ozodbek NAZARBEOV,  
Ortiqali QOZOQOV,  
Feruza MUHAMMEDJANOVA,  
Xurshid DO'STMUHAMMAD,  
Sherzodxon QUDRATXO'JA,  
Shavkat SHARIPOV,  
Shuxratjon AXUNDJANOV.

**Bosh muharrir:**  
Mirodil ABDURAHMONOV

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy. Gazeta tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflarga qaytarilmaydi.

**NAVBATCHI MUHARRIRLAR:**  
Ravshan MAHMUDOV,  
Mahbuba KARIMOVA  
NASHR UCHUN MAS'UL:  
Ma'murjon YO'LDOSHEV  
NAVBATCHI:  
Feruza XODJAYEVA  
DIZAYN GURUHI:  
Asilbek QUDRATOV,  
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:  
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonalar manzili: «Buyuk Turo» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

**Adadi – 7 193.**  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.  
**Qog'oz bichimi:** 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq  
Buyurtma: G – 816  
Bosishga topshirish vaqti 21:00.  
Topshirildi 1:35

ISSN 2010-7714  
123456